

XII. DEMOGRAFIK HOLAT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning 1-aprel holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 1 514,5 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 7,1 ming kishiga yoki 100,5 foizga ko'paydi. Shundan, 710,6 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 46,9 %) va 803,9 ming kishi – qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi.



**Jizzax viloyatining hududlari
bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2024- yilning 1-aprel holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Jizzax viloyati	1 514,5	710,6	803,9	102,1	102,1	102,1	100,0	100,0	100,0
<i>shahar:</i>									
Jizzax	196,8	196,8	0,0	102,0	102,0	0,0	13,0	27,7	0,0
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	48,9	16,8	32,1	101,5	101,3	101,5	3,2	2,3	4,0
Baxmal	171,3	47,1	124,2	102,3	103,1	102,0	11,3	6,6	15,5
G'allaorol	187,8	65,4	122,4	102,2	101,9	102,3	12,4	9,2	15,2
Sharof Rashidov	244,4	97,2	147,2	102,6	102,7	102,6	16,1	13,7	18,3
Do'stlik	70,2	29,6	40,6	101,6	101,3	101,8	4,6	4,2	5,1
Zomin	180,6	85,6	95,0	102,4	102,4	102,5	11,9	12,0	11,8
Zarbdor	95,1	52,6	42,5	102,1	102,1	102,0	6,3	7,4	5,3
Zafarobod	53,9	24,6	29,3	101,9	102,0	101,9	3,6	3,5	3,6
Mirzacho'l	55,6	31,1	24,5	101,7	101,7	101,8	3,7	4,4	3,1
Paxtakor	81,3	39,2	42,1	102,0	101,7	102,1	5,4	5,5	5,2
Forish	98,7	18,3	80,4	101,5	101,6	101,5	6,5	2,6	10,0
Yangiobod	29,9	6,3	23,6	101,4	99,6	101,5	2,0	0,9	2,9



Doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2024- yilning 1-aprel holatiga)

Doimiy aholi soni

1 514,5
ming kishi

Tabiiy o'sish

+7,6
ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



46,9 %

Qishloq




53,1 %

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1-aprel holatiga

Erkaklar


50,5%



764,3 ming kishi

Ayollar

49,5%




750,2 ming kishi

2024- yilning 1-aprel holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 1 514,5 ming kishini tashkil etib, shundan, erkaklar 764,3 ming kishini (jami aholi sonining 50,5 %) va ayollar 750,2 ming kishi (49,5 %) ni tashkil qildi.



Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da
(2024- yil 1-aprel xolatiga)




Yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha aholining
tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Tug'ilganlar	9 761	9 114	26,8	24,3
Vafot etganlar	1 538	1 469	4,2	3,9
<i>shu jumladan:</i>				
Nikohlar	1 656	1 568	4,5	4,2
Ajralishlar	430	444	1,2	1,2

Tug'ilish. 2024- yilning yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 9 114 kishini tashkil etdi va 2023- yilning shu davriga (9 761 kishi) nisbatan 647 kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 24,3 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli kamayishi Jizzax shaxrida (30,6 promilledan 21,2 promillegacha), Paxtakor (27,8 promilledan 22,6 promillegacha), Do'stlik (24,4 promilledan 20,5 promillegacha) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti
 2024- yilning yanvar-mart holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)




O‘lim. 2024- yilning yanvar-mart oylarida o‘lganlar soni 1 469 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (1 538 kishi) nisbatan 69 kishiga kamaydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 3,9 promilleni tashkil qildi (2023- yil yanvar-mart 4,2 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyentining sezilarli kamayishi Arnasoy (6,5 dan 3,3 promillegacha) Sharof Rashidov (5,4 dan 3,7 promillegacha), Do‘stlik (4,9 dan 3,7 promillegacha) hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘lim darajasining o‘shish ko‘rsatkichi Mirzacho‘l (3,5promille) tumani hissasiga to‘g‘ri keldi.

Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yilning yanvar-mart holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)




O'lganlar umumiy sonidan 52,9 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,8 foizi – o'sma kasalliklaridan, 7,3 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 4,7 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 10,4 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 1,4 foizi – infeksiyon va parazitlar kasalliklaridan, 14,5 foizi – boshqa kasalliklardan vafot etgan.




Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



Nikohlar va ajralishlar. 2024- yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 1 568 ta nikohlar va 444 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 4,2 ni (2023- yilning yanvar-martda 4,5 bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,2 ni (2023- yilning yanvar-martda 1,2 bo‘lgan) tashkil etgan.

2024 -yilning yanvar-mart oyida viloyat bo‘yicha tuzilgan nikoh koeffitsiyenti



Tuzilgan nikohlar soni bo‘yicha 2023- yilning mos davriga nisbatan hududlarda kamayish kuzatilgan. Bunda eng yuqori kamayish sur‘ati Jizzax shahri (1,1 %) va Arnasoy (0,8 %) tumanida kuzatildi.




Hududlarda yanvar-mart oylarida tuzilgan nikohlar
va nikohdan ajralishlar soni

(kishida)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>
Jizzax viloyati	1 656	1 568	430	444
<i>shahar:</i>				
Jizzax	272	234	73	100
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	40	32	10	16
Baxmal	202	182	34	39
G'allaorol	225	190	60	58
Sharof Rashidov	233	246	83	65
Do'stlik	63	65	21	17
Zomin	228	212	40	40
Zarbdor	107	120	27	22
Zafarobod	56	57	13	13
Mirzacho'l	39	43	16	16
Paxtakor	103	100	24	32
Forish	71	64	22	22
Yangiobod	17	23	7	4

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti
(2024- yil yanvar-mart)**



Ajrimlar sonida 2023- yilning mos davriga nisbatan ko'payish kuzatilgan.

Nisbatan yuqori ko'payish sur'ati Jizzax shahri (0,5 %) va Paxtakor (0,3 %) tumanida kuzatildi..



Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o‘shish soni va koeffitsiyenti

(kishi)

	Kishi soni		1 000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Jizzax viloyati	8 223	7 645	22,5	20,4
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 249	854	26,3	17,5
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	190	218	16,0	18,0
Baxmal	1 019	902	24,7	21,2
G‘allaorol	1 033	1 067	22,9	22,9
Sharof Rashidov	1 322	1 468	22,6	24,2
Do‘stlik	329	293	19,4	16,8
Zomin	1 092	1 040	25,2	23,2
Zarbdor	532	488	23,2	20,7
Zafarobod	248	227	19,0	17,0
Mirzacho‘l	224	200	16,6	14,5
Paxtakor	458	378	23,3	18,7
Forish	421	423	17,6	17,3
Yangiobod	106	87	14,6	11,7

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1 500 kishi, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 2 096 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 596 kishini tashkil etgan, 2023- yilning mos davrida minus 585 kishi bo'lgan.



Yanvar-mart oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Jizzax viloyati	1 518	1 500	2 103	2 096	-585	-596
<i>shahar:</i>						
Jizzax	351	418	327	287	24	131
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	36	43	95	92	-59	-49
Baxmal	71	118	232	267	-161	-149
G'allaorol	72	68	202	195	-130	-127
Sharof Rashidov	271	142	265	268	6	-126
Do'stlik	82	72	141	142	-59	-70
Zomin	128	178	161	170	-33	8
Zarbdor	102	61	128	134	-26	-73
Zafarobod	55	32	104	68	-49	-36
Mirzacho'l	105	154	134	121	-29	33
Paxtakor	161	103	136	133	25	-30
Forish	57	68	140	150	-83	-82
Yangiobod	27	43	38	69	-11	-26

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 149 kishi), G'allaorol (minus 127 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosini Jizzax shahrida (131 kishi) kuzatildi.